

## O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAGI LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

*F. Mamatkulova<sup>1</sup>, S. Mahmudova<sup>2</sup>*

### *Annotatsiya:*

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi o'quvchilarda lug'at boyligini oshirishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatini ko'rsatib berishdan iborat. O'quvchilar e'tiborini tortishda o'qituvchilarga qo'l keladigan ba'zi usullar haqida ham qisqacha yoritib berilgan.

*Kalit so'zlar:* Axborot kommunikatsion texnologiyalar, elektron doska, kompyuter, noutbuk, o'quv materiallari, texnologiya, chet tillari, lug'at boyligi, zamonaviy texnologiyalar.

Chet tillarini o'rganish yangi madaniyatlar va sayohat istiqbollarini ochib beradi, shuningdek istiqbolimizni kengaytiradigan hayajonli sayohatni taklif etadi (2024:3). Ta'lim texnologiyalarining integratsiyasi turli xil o'quvchilar, jumladan, nogiron yoki til to'siqlari bo'lgan o'quvchilarni joylashtirish uchun vositalar va resurslarni taqdim etish orqali inklyuzivlik va qulaylikni qo'llab-quvvatlaydi (2024:4). Bugungi kunda chet tillarini o'rganish talab darajasiga chiqqani sir emasdir. Hozirda mustaqillik davri farzandlari kamida 2 ta chet tilini o'rganishni o'z oldilariga maqsad qilib oladilar. Buning uchun ona diyorimizda shart-sharoitlar keng miqyosda yaratilgandir. Bolalar 1-sinfga qadam qo'ygandan boshlab, rus va ingliz tili bilan tanishishni boshlaydilar. Shu bilan birga bu tillarni o'qitish 11-sinfga qadar davom etadi. Bu jarayon davomida o'quvchilar eng kamida (B1) darajagacha shu tillarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xususiy makatblar va Oliy ta'lim muassasalarida esa qo'shimcha ravishda nemis, fransuz, italyan, turk, arab va boshqa tillar o'qitiladi. Har bir tilni o'rganish muayyan bir jarayon talab etadi. Misol uchun, birona chet tilini o'rganishda grammatika va so'z boyligi katta ahamiyat kasb etadi. Grammatika bu gaplarni tuzilish tarkibinigi qoidalaridir. So'z boyligi esa ma'lum bir tildagi so'zlardir. Barchamizga ma'lumki, insonda ma'lum bir tildagi so'z boyligi mavjud bo'lmasa, bu yerda grammatikadan foydalanishning hech qanday ahamiyatli jihati yo'qdir. Bugungi texnologiya asrida axborot kommunikatsion texnologiyalarni har bir sohada o'z o'rnini topishga ulgurdi. Shu bilan birga, chet tillarini o'rganishda ham axborot kommunikatsion texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

Chet tillarini o'qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish o'quv materiallarini "vizuolizatsiya" qilish ya'ni uni "jonlantirish", vizual sayohat qilish qobiliyati, boshqa yo'llar bilan ko'rsatib bo'lmaydigan hodisalarni tasavvur qilish qobiliyati bilan bog'liq didaktik imkoniyatlarni ochib beradi. Bu esa o'rganish jarayonining samarali va jonli bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Lug'at boyligini oshirishda axborot kommunikatsion texnologiyalarning roli kattadir. Yangi so'zlarni o'rganish jarayoni barcha o'quvchilar uchun bir xil tarzda kechmaydi. Chunki o'quvchilar orasida o'zlashtirishi sust o'quvchilar ham yo'q emas. Axborot kommunikatsion texnologiyalari yordamida esa barcha o'quvchilar bir xil va samarali tarzda o'rgana olishadi (2014). Chunki ular zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali, ma'lum bir so'zning oddiygina tarjimasini bilan emas, tasviri orqali eslab qolishadi. Olimlarning fikricha, odam eshitgan narsaning 20 foizini va ko'rgan narsaning 30 foizini ko'rgan va eshitgan narsasining 50 foizidan ortig'ini bir vaqtning o'zida eslab qoladi. Shunday qilib, jonli tas'virlash yordamida yangi so'zlarni idrok etish va eslab qolish jarayonini osonlashtirish har qanday tasvirning asosidir. Misol uchun oddiygina "banan" mevasining ingliz tilidagi tarjimasini aytishdan ko'ra, kompyuter, noutbuk, yoki elektron doskadan foydalanib, "banan" mevasining rasmi va ingliz tilidagi tarjimasini ko'rsatish samaraliroq bo'ladi (2013). Rasmning pastgi qismiga shu mevaning audio yozuvi joylab qo'yilsa, bunda o'quvchilar bira to'la shu so'zning qanday talaffuz qilinishini ham o'rganisha olishadi. Bu an'anaviy ta'lim tizimidagi yangi so'zlarni o'rgatish metodikasidan afzalroqdir. An'anaviy ta'lim tizimida so'zlarni o'rgatishda tarqatma materiallardan ham foydalaniladi. Bu usul ham juda samaralidir. Ammo, yangi so'zlarni o'rgatishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalligi yondashuvning noodatiyligi va kompyuter bilan ishlashga qiziqish tufayli o'rganish sifatining oshishidir. Shuning uchun ham xalq ta'limi vazirligi tomonidan umum ta'lim maktablarini kompyuter texnikasi bilan jihozlash, kompyuterlarning eskirgan modellarini ekspluatatsiyadan chiqarish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmogda. Buning uchun xalqaro moliya institutlarning kredit grantlari jalb qilinmogda.

<sup>1</sup> Fotima Mamatkulova Ashirkulovna, Senior teacher of USWLU, Tashkent, Uzbekistan

<sup>2</sup> Mahmudova Sarvina Yusufjon qizi, Student of USWLU, Tashkent, Uzbekistan

O'quvchilarning chet tillardagi lug'at boyligini oshirishda axborot texnologiyalarning o'rni ahamiyatlidir. Axborot kommunikatsion texnologiyalarga bo'lgan qiziqish orqali o'quvchilar yangi so'zlarni tez va samarali ravishda yod olish imkoniyatiga ega bolishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- [1]. U.Nazarov , A.Karimov ,(2014). "Ta'limda axborot texnologiyalari"fanidan ma'ruzalar matni , Samarqand, 2 . <https://nktkos.ru>.
- [2]. Stockwell, G., Hubbard, P. (2013). "Computer-Assisted Language Learning: A Comprehensive Guide".
- [3]. Mamatkulova, F., Azamov, A., & Eshquvvatov, B. (2024). The features in foreign languages and learning processes. O 'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 130-134.
- [4]. Zarqarayeva, N., Zaripbayeva, S., & Mamatkulova F., (2024). Ta'lim va ta'limda ta'lim texnologiyalari. Ko'p tillilik muhitida xorijiy tillarni rivojlantirishning innovatsion va integrativ muammolari, 1(01), 207–213. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11255760>